

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ESHONQULOV OTABEK SAFARALIYEVICH**

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA MAQOLLARINING  
LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Eshonqulov Otabek Safaraliyevich**

Nemis va o‘zbek tillarida maqollarning lingvokulturologik talqini ..... 3

**Эшонқулов Отабек Сафаралиевич**

Лингвокультурологическая интерпретация пословиц на немецком и  
узбекском языках..... 25

**Eshonkulov Otabek Safarliyevich**

Linguacultural interpretation of proverbs in German and Uzbek  
languages ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 54

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**ESHONQULOV OTABEK SAFARALIYEVICH**

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA MAQOLLARNING  
LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3925 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida [www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Anorqulov Sanjar Iskandarovich**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Suleymanova Nilufar Jabbarovna**

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Ruziyev Yarash Bazarovich**

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli Ilmiy kengashning "9" may 2025-yil soat 12<sup>20</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61863-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "6" may kuni tarqatildi.  
(2025-yil "6" may dagi № 17-raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z.Nasrullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'.Qo'ldoshov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A.Kiselyov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida bugungi kunda til birliklarini o'rganishga nisbatan fanlararo yondashuv keng qo'llanilmoqda. Til birliklarini, xususan, maqollarni o'rganishga nisbatan bunday yondashuv nafaqat lingvistik, balki madaniyatshunoslik, tarix, sotsiologiya, dinshunoslik va boshqa sohalarga doir ma'lumotlarni jalb etishni talab etadi. Shu munosabat bilan maqollarning lingvokulturologik talqinini amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunonchi maqollar bevosita u yoki bu xalqning tili va madaniyatini aks ettiradi.

Dunyo tilshunosligida maqollarning lingvokulturologik talqini ko'plab olimlarning diqqat markazidagi masalalardandir. Buning sababi shundaki, har bir xalq o'z madaniyati, dunyoqarashi o'ziga xosliklarini aks ettiruvchi maqollar va paremik vositalarni ajratib ko'rsatish uchun o'ziga xos til birliklari majmuasidan foydalanadi. Maqollarning lingvokulturologik talqini masalasi ahamiyatli bo'lishiga qaramasdan, mazkur masala o'zaro qardosh bo'lmagan (turli tizimga mansub) tillar materialini asosida kam o'rganilgan, shu bois mazkur tadqiqotning dolzarbligi unda maqollar lingvokulturologik nuqtai nazaridan chog'ishtirib o'rganilganligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston tilshunosligida til birliklarining lingvokulturologik xususiyatlari masalasi qator tilshunoslarning tadqiqot obyektiga aylangan. Qiyosiy, chog'ishtirma tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi hamda bu maqollarning universal va milliy-madaniy belgilarini yuzaga chiqarishni taqozo etadi. O'z navbatida xorijiy tillarni o'rganuvchilarning sotsiomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'z tilini hurmat qilgan ma'rifatli el boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi"<sup>1</sup>. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi"gi farmonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida" qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirdagi nutqidani. <https://uza.uz/oz/posts/prezident-shavkat-mirziyoyevning-o-zbek-tiliga-davlat-tili-m-21-10-2019>.

samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda, boshqa sohalarida bo'lganidek, tilshunoslikda ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maqollarning o'rganilish tarixi, struktur-semantik va stilistik xususiyatlari nuqtayi nazaridan bir qancha tadqiqotlar bajarilgan. Taniqli o'zbek olimlari B.Rahmonov, Sh.Shorahmedov, Sh.Shomaqsudov, M.Abdurahimov, M.Sodiqova, R.Rasulov, Sh.Raxmatullayev, T.Mirzayev, B.Sarimsoqovlar<sup>2</sup> o'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. Mustaqillikdan keyingi davrda maqollarni ma'nolariga ko'ra tasniflab, o'zaro sinonim bo'lgan maqollarni mavzular bo'yicha tartiblab ish olib borgan B.Jo'rayevaning ilmiy ishlari ham ahamiyatga molik. Nemis tilida Y.Agricola, X.Beyer, G.Buxmann, B.Werner, B.Heinhold, B.Wilhelm, J.M.Braun, V.Kerte,<sup>3</sup> va boshqalar; rus tilshunosligida Z.U. Blyagoz, Y.M Sokolov, Z.J. Kudaeva, P.Tambiev<sup>4</sup> va boshqalarning paremiologiya muammolariga bag'ishlangan ishlarida maqollarni to'plash va ularni tasniflash hamda ularni tahlil qilishga doir masalalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari P.Nazarov tomonidan nemis tili darslarida maqollardan foydalangan holda dars

---

<sup>2</sup>Mirzayev T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. Toshkent: Fan, 2019. –512 b.; Абдурахимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар луғати. –Тошкент: Фан, 1976. –216 б.; Саримсаков Б.И., Мусақулов А.К. Узбекские народные пословицы. –Ташкент: Фан, 1983. –232 с.; Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2018. –363 б.; Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз? –Тошкент: F.Ғулом, 1988. –352 б.; Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. –Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. –Б. 184–185. Жўраева Б. Ўзбек халқ мақолларининг синонимик изоҳли луғати. –Тошкент: Фан. –42 б.; Раҳматуллаев Ш. Фразеологик бирликларнинг асосий маъно турлари. –Тошкент: Фан, 1955. –Б. 26-27.; Назаров П. Бакалавр тайёрлашнинг куйи босқичида немис тилини коммуникатив методика асосида ўқитишда мақоллардан фойдаланиш. Педагогика. фанлари номзод. дисс. –Самарқанд; SamDCHTI, 2012. –186 б.; Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. –Тошкент: «Ўқитувчи», 1984. –111 б.; Содикова М. Қисқача русча-ўзбекча барқарор иборалар луғати. –Тошкент: Фан, 1994. –228 б.

<sup>3</sup>Büchmann, Georg: Geflügelte Worte. Der Zitatenschatz des deutschen Volkes, –Berlin, 1864. –S. 358.; Wilhelm Körte. Die Sprichwörter und sprichwörtlichen Redensarten der Deutschen. –Leipzig 1861. –S. 214; Agricola, Johannes: Drey hundert Gemeiner Sprichwörter der wir Deutschen uns gebrauchen, vnd doch nicht wissen woher sie kommen, Hagenau. 1529. –S. 258.; Sprichwörterlexikon. Horst und Annelies Beyer. VEB Bibliographisches Institut. —Leipzig, 1987. –S.553.; Betz, Werner: Deutsche Sprichwörter. Weisheiten der Volker. Wiesbaden 1972. –S. 352.; Baur, Heinhold. Spruchweisheit. –München. 1955. –S. 204.; Bausinger, Hermann. Formen der Volkspoesie. –Berlin. 1968. –S. 98.; Binder Wilhelm. Sprichwörterschatz der deutschen Nation. Aus mündlichen und schriftlichen Quellen gesammelt. –Stuttgart. 1873. –S. 269.; Borhardt Wilhelm. Die sprichwörtlichen Redensarten im deutschen Volksmund. –Leipzig. 1888. –S. 207.; Braun, J. M.: Sechs Tausend deutsche Sprichwörter und Redensarten, –Stuttgart 1840. –S. 120.

<sup>4</sup>Кудаева З.Ж. Паремеилогические жанры адыгского фольклора (поэтико - этнографические аспекты). Идеино-художественное функционирование. Канд. дисс. ...–Москва. 1985. –158 с.; Блягоз З.У. Жемчужины народной мудрости (адыгейские пословицы и поговорки на адыгейском и русском языках). Адыгейское книжное изд-во. –Майкоп: Университет Майкоп, 1992. –321 с.; Соколов Ю.М. Русский фольклор. Москва: Фан, 1938. 108 с.; Тамбиев П. Адыгские пословицы. Москва. Изд- во Эльбрус. 1984. –208 с.; Талпа М. Устное народное творчество кабардинцев.- Литературный критик. № 12. –Москва, 1935. С-58.

mashg'ulotlarini o'tkazish borasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo, o'zbek va nemis xalq maqollarining semantik-struktur, qiyosiy, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari yetarli darajada yoritilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi mavzusi Samarqand davlat chet tillar institutining "Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlari" masalasiga bag'ishlangan istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nemis va o'zbek tillarida maqollarning qiyosiy tematik tahlili asosida ushbu qardosh bo'lmagan ikki xalqning mentaliteti, an'analari, urf-odatlarini lingvokulturologik jihatdan ifodalash; maqollarni boshqa tilga tarjima qilinganida ularning semantik xususiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- nemis va o'zbek maqollarini chog'ishtirma tahlil qilish asosida ularning lingvokulturologik va milliy mentalitetga xos xususiyatlarini aniqlash;

- paremiologiya sohasidagi o'zbek va nemis tadqiqotchilarining maqollar tarkibiga nisbatan identifikatsion yondashuvlarini, ikki xalq urf-odatlari, mentalitetini maqollar asosida ko'rsatish;

- mantiq, struktura (tuzilish) va semantika nuqtayi nazaridan nemis va o'zbek tillarining maqol tarkibiga xos xususiyatlarni ko'rsatish;

- yuqorida tilga olingan ikki tilning maqollari o'rtasidagi ham til ichidagi, ham tillararo bog'liqliklarni ushbu tillarning maqol tarkibini qiyosiy, kvantitativ va kvalitatif, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tematik tahlil qilish asosida aniqlash.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida nemis va o'zbek tillaridagi maqollarning qiyosiy tahlili tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** lingvokulturologiya sohasida ikki tildagi maqollarning struktural tuzilishi, semantik va lingvokulturologik xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Ushbu ishni ochib berishda tasnifiy tahlil, chog'ishtirma, tarixiy-etimologik va struktur-semantik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nemis va o'zbek xalq maqollarining olam lisoniy manzarasidagi lingvokulturologik jihatlari ochib berilgan;

ikki millat xalq maqollarini tahlil qilish jarayonida millatlarning o'ziga xos kommunikativ, ijtimoiy-madaniy jihatlari farqlanib, maqollarning asosi xalq milliy mentaliteti ekanligi dalillangan;

leksik manbalarga va maqollarning etimologiyasiga tayangan holda har ikki tildagi maqollarni struktur-semantik xususiyatlari aniqlangan;

maqollarning adressivlik, ochiqlik, milliy o'ziga xoslik va diskursga mos kategorial belgilari aniqlanib, ularning nemis va o'zbek xalq maqollarida namoyon bo'lishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Ko'p tilli paremiologik lug'atni tuzishda maqollarning semantik xususiyatlarini o'rganishda muayyan yondashuvlarni ishlab chiqish mumkinligi dalillangan.

Dissertatsiya natijalari qiyosiy tilshunoslik bo'yicha ma'ruza kurslarini o'qishda, shuningdek, paremiologiya, lingvokulturologiya muammolari bo'yicha seminarlar va maxsus kurslarni o'tkazishda, nemis yoki o'zbek tillarini o'qitish uchun ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot materiallari tarjima nazariyasini rivojlantirishda, tarjimonlarning amaliy faoliyatida, shuningdek, ideografik ko'p tilli lug'atlarni ishlab chiqishda qo'llanilishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nemis va o'zbek tillaridagi tahlil qilingan ko'p sonli maqollar, tilshunoslikda ishlatiluvchi (struktur, semantik, stilistik, chog'ishtirish va boshqa) yondashuv va metodlarning qo'llanishi, lingvokulturologiya masalasiga doir tilshunoslikda amalga oshirilgan qator tadqiqotlarning nazariy qoidalaridan foydalanilganligi, zamonaviy tilshunoslikning dastlabki asosiy ilmiy-nazariy qonuniyatlari (antropotsentrizm tamoyili, fanlararo tamoyil), tadqiqot natijalarining ishning nazariy qonuniyatlariga muvofiqligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Qiyoslash va chog'ishtirish asosida nemis va o'zbek tillari maqollarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishi, shuningdek, o'xshashlik, adekvatlik, bir xillik hamda aniqlangan boshqa korrelyatsiyalar ko'rinishdagi ekvivalentlarni tanlash usullarini ishlab chiqilishi bilan izohlanib, bu ko'p tilli paremik lug'atlarni yaratishda maqollarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish vositalari va usullarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Lingvokulturologik aspekt ham muhim ahamiyatga egadir. Rivojlangan jihatlarini qo'llash, maqollar o'zlashtirilishini yanada yuqori bosqichga ko'tarish, shu tillarda so'zlashuvchi xalqlar mentalitetini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Maqollarni to'g'ri va o'zaro bog'liq holda qo'llash integratsiya jarayonlarida ishtirok etayotgan xalqlar o'rtasida o'zaro tushunishni rivojlantirishga yordam beradi, bu hozirgi paytda nihoyatda zarur bo'lgan tolerantlikni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nemis va o'zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida olingan nazariy xulosalar va amaliy natijalar asosida:

nemis va o'zbek maqollarining umumiy va alohida xususiyatlari, turlari, vazifalarini tadqiq qilish maqsadida, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzurida Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan FZ-2019062034 raqamli "Xorijiy tillarda so'zlashuvchilar uchun o'zbek tilini intensiv o'rgatuvchi multimediya mahsulotlarini yaratish" nomli amaliy tadqiqod loyihasi doirasida olingan ilmiy xulosalarga kelingan. (O'zbekiston davlat jahon tillari universitet tomonidan berilgan 2024-yil 24-apreldagi 24/244 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, amaliy taklif va tavsiyalar, tilshunoslik, lingvokulturologiya,

dialektologiya tarjimashunoslik kabi fanlarni o'qitilishida yaratilgan milliy-madaniy so'zlar glossariysi, elektron resurslar, nazariy hamda amaliy materiallar tayyorlanayotganda muhim manbaa bo'lib xizmat qilgan.

Nemis va o'zbek tillaridagi maqollarning lingvokulturologik talqini, ularning strukturaviy hamda semantik bog'liqligi va nomutanosibligi, asosan qaysi sohaga oid maqollar tadqiqotning o'rganilish obyektiga aylangani, qolaversa, joriy ilmiy ishning nemis tili o'rganuvchilarga kelajakda ko'mak berishi mumkinligi haqidagi xulosalardan "Foreign languages" telekanalida efirga uzatiladigan "Dialog", "Good morning, Uzbekistan!" ko'rsatuvlarning ssenariysini tayyorlashda foydalanildi. Dissertatsiyada ilgari surilgan muhim ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega tavsiyalardan telekanaldagi boshqa teleloyihalarda ham foydalanish ko'zda tutilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tomonidan berilgan 2024-yil 25-apreldagi 01-05-554 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, xorijiy tillarni o'rgatish borasidagi nazariy jihatlarining televizion talqini takomillashuviga erishildi.

Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan amalga oshirilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida dissertatsiya bo'yicha erishilgan natijalar va ishlab chiqilgan tavsiyalar institutning o'quv jarayoni va xalqaro loyihalarni amalga oshirishda foydalanilgan. Mazkur loyihada nemis o'zbek tillari maqollarining struktur, semantik, stilistik(uslubiy), bahoviy, lingvokulturologik xususiyatlar ifodasi darajasida nemis va o'zbek maqollarining universal va differensial belgilari yuzaga chiqarilgan. (Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan berilgan 2024-yil 29-maydagi 1129/02-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, nemis va o'zbek tillaridagi maqollarning paydo bo'lishi va amal qilishga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-madaniy va lingvokulturologik omillarni o'rganish, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida chet tilini mutaxassislik fani sifatida o'qitish jarayonida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga tadbqiq qilish imkonini bergan.

Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining "ERASMUS + dasturi 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli xalqaro loyihada dissertatsiya bo'yicha erishilgan natijalar va ishlab chiqilgan tavsiyalar institutning o'quv jarayoni va xalqaro loyihalarni amalga oshirishda foydalanilgan. Yaxshilikni ulug'lovchi, mehnatsevarlikni targ'ib qiluvchi, tadqiq qilinayotgan ikki xalq hayot tarzini yoritib beruvchi maqollarning strukturaviy o'xshashliklarning, semantik jihatdan bir-birini taqozo qilmaydigan o'rinlarda kelishi qiyosiy-tahlil uslublarida ko'rib chiqilgan. (Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan berilgan 2024-yil 7-iyundagi 1204/02-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, maqollar madaniy ahamiyatli axborotni yetkazuvchi, saqllovchi hamda nemis va o'zbek xalqlari hayot tarzini ifodalovchi lingvokulturologik ahamiyatli birliklar sifatida o'rganish oliy ta'lim tizimida o'qitish jarayoniga joriy qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, xorijiy jurnalda 4 ta maqola e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 128 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish.** Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Maqol – lingvokulturologik ongni o'rganish manbai sifatida**" deb nomlangan birinchi bobining dastlabki qismida tilshunoslikda maqollar tadqiqotining nazariy asoslari, ikkinchi qismida o'zbek maqollarining lingvistik xususiyatlari hamda uchinchi qismida esa nemis va o'zbek tillari maqollari lingvokulturologik ongni o'rganish aspekti sifatida o'rganish haqida fikr yuritiladi.

Nemis maqollarining tarixiga nazar solsak, ajdodlardan meros sifatida yetib kelgan eng birinchi maqollar qadimgi nemis qo'lyozmalaridan biri bo'lgan "Gildebrand haqidagi qo'shiq" da qayd qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Maqollarni yana XIV asrda rohib Sent-Galler Notker Labeoning ishlarida uchratish mumkin. Ko'plab maqollarni etimologiyasiga ko'ra quyidagi qatlamlarga tegishli deb hisoblash mumkin: **antik davrga:** "Schuster, bleib bei deinen Leisten", "Eine Hand wäscht die andere"; **lotin tiliga:** "Den seinen gibt' s der Herr im Schlaf", "Hochmut kommt vor dem Fall"; **o'zlashmalarga:** "Lügen haben kurze Beine" – (Yolg'onning umri qisq, "Neue Besen kehren gut" – (Yangi supurgi yaxshi supiradi), "Der Krug geht so lange zu Wasser, bis er bricht" – (Ko'za kunda emas, kunida sinadi).

XV – XVI asrlar nemis maqollarining gullab-yashnagan davri bo'ldi. Bunday nashrlarga ilk qadam 1529-yilda "Drey hundert Gemeyner Sprichwörter, die wir Deutschen uns gebrauchen" (Nemislar tomonidan qo'llanadigan jami 300 ta maqol) nomli ish bilan Yohan Agrikola tomonidan tashlangan edi. Shu yilning o'zida boshqa bir qism "Das Ander teyl" to'plami, 1534-yilda esa "Sybenhundert und Fünffzig Teutscher Sprichwörter"<sup>5</sup> – (750 ta nemischa maqollar to'plami) va 1548-yilda mazkur to'planning davomi chiqdi. Bir asrdan ko'proq vaqt

---

<sup>5</sup>Agrikola, Johannes: Drey hundert Gemeyner Sprichwörter der wir Deutschen uns gebrauchen, und doch nicht wissen woher sie kommen, –Hagenau. 1529. –S. 412.

mobaynida K.F.Vanderning monumental ishi “Nemischa maqollar lug‘at-leksikoni”<sup>6</sup> (Deutsches Sprichwörter-Lexikon) XVI va XVIII asrlar oralig‘i nemis tili maqollar tarkibini qamrab olgan tadqiqodlarning cho‘qqisi bo‘ldi deyish mumkin. Xorst Beyer tahriri ostidagi nisbatan amaliy alifbo tartibida joylashtirilgan 5000 ga yaqin lug‘at maqollarni o‘z ichiga olgan lug‘at-ma‘lumotnoma ham nemis maqollari tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur lug‘atning qadr-qimmatini shundaki, unga XVI asrdan zamonamizgacha bo‘lgan maqol va maqolli ifodalar kiritilgan bo‘lib, bu uning nomida ham aks etgan “Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen Sammlungen vom 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart”<sup>7</sup> – (XVI asrdan zamonamizgacha bo‘lgan nemischa to‘plamlardagi maqol va maqolli ifodalar) Alohida qayd qilish joizki, mazkur ma‘lumotnomaning afzalligi, unda juda ko‘p nemischa maqollar, maqolli ifodalar, iqtiboslar, aforizmlar va boshqa paremiyalarning etimologiyasini aniqlash yuzasidan samarali urinishlar amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning o‘zbek xalq maqollarining lingvistik xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan faslida maqol to‘plash va nashr qilishdagi o‘zbek olimlarining ishlari ko‘rib chiqilgan. Bu borada missioner N. G. Ostroumovning xizmati katta<sup>8</sup>. Qolaversa bir necha o‘zbek olimlari tomonidan maqollarni tahlil qilishga e‘tibor qaratilgan. Sh.Shorahmedov, Sh.Shomaqsudov va X.Abdurahmonovning<sup>9</sup> maqollarning til xususiyatini yorituvchi tadqiqotlari yuzaga keldi. Maqollarning yangi nashrlari bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar sifatida B.Sarimsoqov, B.Musoqulov<sup>10</sup> va boshqalarning ishlari ham tahsinga loyiq. Paremik janrlar munosabati kompleks holda tadqiq etilmagan. Maqollar mazmuniy bir butunlik nomi ostida tilshunoslik yutuqlari asosida o‘rganilgan. Xususan, M.Z.Sadriddinovaning ilmiy tadqiqoti o‘zbek maqol va matallari leksikasi tadqiqiga bag‘ishlangan<sup>11</sup>. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, 80-yillarning oxirlarida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan 13 mingga yaqin maqollar alifbo bo‘yicha tartiblashtirilgan holda nashr ettirildi. Bu misol ham o‘zbek xalqining naqadar ulkan va bebaho madaniy merosga ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek folklorshunos olimlari tomonidan maqollarni tasnif qilishning asosan quyidagi ko‘rinishlari

---

<sup>6</sup>Karl Friedrich Wilhelm Wander. Deutsches Sprichwörter Lexikon. 5 Bände, Brockhaus, Leipzig 1867–1880 (Nachdrucke von Scientia-Verl, –Aalen 1963. –S. 289.; Wissenschaftliche Buchgesellschaft. –Darmstadt. 1970. –S. 418; Akademische Verlagsgesellschaft Athenaion, –Kettwig 1987. –S. 287. Auch als CD-ROM erschienen sowie auf DVD im Jubiläumsband Sprache der Digitalen Bibliothek, 2007. –S. 368.

<sup>7</sup>Horst Beyer und Annelias. Sprichwortlexikon. Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen Sammlungen vom 16. Jahrhundert bis zur Gegenwart. 1-Januar. –Berlin, 1985. –S. 602.

<sup>8</sup>Остроумовъ Н.П. Сарты. этнографические материалы. пословицы и загадки сартовъ. –Ташкентъ. Типо-литография торг. дома, „Ф.Н.Г.Бр.Каменеие“, 1895. –228 с.

<sup>9</sup>Абдурахмонов Х. Мақол ва маталларда такрор компонентларнинг қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974, № 3. –Б. 61-62.; Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз? –Тошкент: Ф.Ғулом, 1988. –352 б.; Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. –Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. –Б. 184–185.

<sup>10</sup>Саримсаков Б.И., Мусакулов А.К. Узбекские народные пословицы. –Ташкент: Фан, 1983. –232 с.

<sup>11</sup>Садриддинова М. Лексика узбекских пословиц и поговорок: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1985. –С. 18.

mavjud: a) alifbo tartibida. Unga ko‘ra mavjud material maqol to‘plamida alifbo tartibiga solinadi. Uning afzalligi shundaki, foydalanuvchi to‘plamdan maqolni tezroq topa olishi mumkin. Ammo kamchiligi unda maqollarning mavzu jihatdan berilmaganligi tufayli foydalanuvchiga ko‘proq qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. b) mavzular tartibida. Tasnifning bu turi oldingisidan ancha murakkab va mukammalligi bilan ajralib turadi. Chunki bu turda material muayyan mavzu guruhlariga ajratiladi, har bir mavzudagi material esa o‘z ichida alifbo tartibi bo‘yicha beriladi. Ushbu tartib bo‘yicha tuzilgan maqol to‘plamlari foydalanish jihatidan qulayligi, eng muhimi, muayyan xalq maqollari fondining mavzu doirasini ko‘rsatib berishi bilan ham amaliy, ham nazariy ahamiyat kasb etadi. d) to‘g‘ri yoki ko‘chma ma‘no tashishiga ko‘ra. Maqollarning semantik tabiati davrlar o‘tishi bilan o‘zgarib turadi: oldin o‘z ma‘nosida qo‘llanilgan maqollar keyinchalik faqat ko‘chma ma‘no kasb etishi mumkin. Shunga ko‘ra maqollar 3 xil: a) o‘z ma‘nosida qo‘llanuvchi; b) o‘z va ko‘chma ma‘noda qo‘llaniluvchi; d) faqat ko‘chma ma‘noda qo‘llaniluvchi. Umuman, bu turdagi tasnifga ko‘ra davrlar o‘tishi bilan xalq maqollari tabiatida yuz bergan semantik o‘zgarishlarni aniqlashga, binobarin har bir maqolning qay darajada davr talablariga javob bera olishini belgilashga imkon beradi.

Maqollarga til birligi sifatida yondashish, ya‘ni maqollarga turg‘un birikmalar sifatida ta‘rif berish ayrim dissertatsiyalarda o‘z aksini topdi. Bunday qilingan ishlar orasida Bibish Jo‘rayevaning “Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma‘noviy uslubiy qo‘llanilishi”<sup>12</sup> mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda olim maqol va ibora, maqol va matal o‘rtasidagi o‘xshash va farqli belgilarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritishga harakat qilgan.

Nemis va o‘zbek maqollari lingvokulturologik ongni o‘rganish aspekti sifatida tadqiq qilingan faslida ikki til o‘rtasidagi madaniyatlararo o‘xshashlik va tafovutlari haqida so‘z yuritiladi. “Qaysi xalq ichida yashasang, o‘sha odatlarni bajar” ma‘nosidagi maqollarda o‘z aksini topadi. “Andere Länder, andere Sitten” nemis: – (O‘zga mamlakatlar – o‘zga urf-odatlar); “Jedes Land hat seine Sitten” nemis: – (Har mamlakatning o‘z urf-odatlari bor); – “Wie das Land, so die Sitten” nemis: – (Mamlakat qanday bo‘lsa, urf-odatlar ham o‘shunday). Ayrilmas qo‘shninga uyatli so‘z aytma; To‘yning bo‘ladi bo‘ladisi qiziq; To‘ylikning to‘ycha tashvishi bor, o‘likning o‘ycha tashvishi bor; Qo‘shningni kamsitayotib, o‘zing kamsitilasan. Maqollar semantikasidan ko‘rinib turibdiki, ular qaysi millatga mansubligidan qat‘iy nazar umuminsoniy qadriyatlarni ifodalashi mumkin. Madaniyatlararo kompetensiya o‘zga madaniyatlarni baholashni yoki ularni anomaliya sifatida emas, balki odatiy hodisa sifatida qabul qilishni nazarda tutadi. Shunday qilib, S.G.Ter-Minasova ta‘kidlaganidek; “til mafkurasida, ya‘ni milliy o‘ziga xos bo‘lgan qatlamida qadriyatlar sistemasi, ijtimoiy ma‘naviyat, olamga, insonlarga va boshqa xalqlarga nisbatan munosabat saqlanadi. Frazologizmlar, maqollar, matallar bir madaniyat bilan birlashgan u yoki bu

<sup>12</sup>Жўраева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланилиши: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. –Самарқанд, 2002. –24 б.; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. (DSc) дисс., автореф. –Самарқанд, 2019. –74 б.

jamiyatning hayot tarzini ham, geografik holatini ham, tarixini ham ko'rgazmali namoyish etadi" (Ter-Minasova S.G. Язык и межкультурная коммуникация)<sup>13</sup>. O'zaro taqqoslanuvchi tillar maqollar tarkibini o'rganishda ham diaxron, ham sinxron aspektlarni qo'llash zarur deb hisoblaymiz.

R.Luts va V.Miederlar ta'kidlaganidek, "flir das Sprichwort gilt immer, ... dass seine Herkunft für den, der es anwendet, von keinerlei Bedeutung ist"<sup>14</sup> - maqollarning kelib chiqishi ularni qo'llovchilar uchun ahamiyatsiz ekanligi maqollarga xosdir. Maqoldan foydalanuvchi iqtibosda bo'lgani kabi bir insonning fikrini asos sifatida olmaydi, balki jamoaviy tajriba va mulohazaning "bozori chaqqoni"ni asos sifatida oladi. Maqolni qo'llash va yetkazish uchun, u qanday manbadan (folklordan, adabiy manbadan) kelib chiqishidan qat'iy nazar haqiqatdan maqol deb tan olingan bo'lsa, xuddi shunday o'zgargan yoki "ishlov berilganligiga" qaramasdan u shubhasiz keng xalq ommasi tomonidan qabul qilingan bo'lishi, qo'llanishi va boshqalarga meros sifatida qoldirilishi zarur. Quyidagi mavzu ham keng tarqalgan, masalan: "Der Bauer und sein Stier sind ein Tier" – (Dehqon ham, uning buqasi ham hayvon) maqolida ifodalangan nemis dehqonlarga nisbatan kamsitish munosabatiga dehqonlarning qiziquvchanligi, topqirligi, unga berilgan tabiiy in'om qarama-qarshi qo'yiladi: "Der Papst und ein Bauer wissen mehr als der Papst allein" – (Rim Papasi va dehqon Rim Papasining o'zidan ko'proq biladi). Maqollardagi aniqlikka qaramasdan, ko'plab maqollarda umumiy yondashuvlar ilgari suriladi: "Erst wäg 's, dann wag 's" – (Yetti o'lchab bir kes), "Versuch's, dann geht's" – (Harakatda barakat). Bunday maqollar istalgan paytda paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Biroq maqollarning katta qismi muayyan tarixiy voqealar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lganligi, avval folklorda, keyinchalik yozma manbalarda qayd qilinganligi bilan ajralib turadi. Qayd qilish joizki, maqollar to'plami asta-sekin shakllangan bo'lib, maqol paydo bo'lishining ilk bosqichida uning taxminiy ma'nosi birinchi o'rinda turgan. Masalan, mashhur "Wer zuerst kommt, mahlt zuerst" – (Erta kelgan, erta yanchar) maqoli eski nemis huquqiy kodeksida ham o'xshash shaklda uchraydi va XIII asrdagi un yanchish huquqi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Eski maqollar qadimgi an'ana va urf-odatlar haqida hikoya qiladi, ular xalq tomonidan yaratilgan dastlabki sodda huquqiy va boshqa fuqarolik tushunchalarning tashuvchisidir. Shunday qilib, maqolning xalqchilligi, eng avvalo, maqol tadqiqot obyektida namoyon bo'ladi. Yuqorida qayd qilinganidek, deyarli har bir maqolda xalq hayot tarzining, mentalitetining in'ikosini topish mumkin. Germaniyada yuzaga kelgan tarixiy vaziyat frazeologizmlarning paydo bo'lishi va tarqalishiga turtki bo'ldi. Ular maqollar kabi xalq hayotida turli o'zgarishlarni aks ettirgan. Masalan, landsknextlar (15–16 asrlarda yollanma piyoda askarlar) yangi qatlami paydo bo'lishi bilan *Fluchen wie ein Landsknecht* – (Landsknext kabi so'kinmoq) frazeologizmi paydo bo'lgan.

<sup>13</sup>Ter-Minasova S.G. Языки межкультурная коммуникация. –Москва: Слово, 2008. С –264; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. –Волгоград: Перемена, 2002.

<sup>14</sup>Röhrig Lutz, Mieder Wolfgang. –Stuttgart: Fachwelt Verlag, 1977. –48 S.

Nemis maqollarining katta qismi oʻrta asrlardayoq paydo boʻlgan, ularning ayrimlari 16-asrga borib taqaladi. F. Zeylarning (1922 y.)<sup>15</sup> sharofati bilan nemis maqollarining dastlabkilari bilan lotin tilida va keyin nemis tilida tanishish imkoni paydo boʻldi. Boshqalariga nisbatan eng eski nemis maqollariga quyidagilarni kiritish mumkin: “Eigener Herd ist Goldes wert” – (Shaxsiy oʻchoq, (uy, oila) oʻz kulbang oltinga teng), “Oʻz uying oʻlan toʻshaging” maʼnosida; “Jeder strecke sich nach seiner Decke” – (Koʻrpanga qarab, oyogʻingni uzat). Gʻarbda ruhoniylar kulgi nishoni boʻlgan boʻlsalar, sharqda mullalar bu holatga tushganlar. Bu oʻzbek tilidagi quyidagi maqollarda oʻz ifodasini topgan: Oʻqimay mulla boʻlgan, choʻqimay qargʻa boʻlar; Baxshiniki hay bilan, mullaniki voy bilan; Mulla bilganini oʻqir, qargʻa koʻrganini choʻqir; Mulla-imom xotin bilan oʻynar, illatini qavmi tortar. Maqollarning insonparvarlik jihatidan yuqori qiymatga egaligini ham qayd qilish joiz. Masalan, barcha xalqlar (mazkur holatda oʻzbeklar va nemislar) maqollarida ifodalanuvchi rahmdillik tavsifa etiladi: “Almosengeben armet nicht”, “Unrecht Gut faselt (gedeiht) nicht” – (Beruvchini qoʻli quruq qolmaydi), (Yaxshilikning yomoni boʻlmaydi). Oʻzbek tilidagi quyidagi maqollar bilan taqqoslaymiz: “Koʻngling keng boʻlsa, hujra ham saroy”, “Yaxshilik eksa, esonlik oʻrar”, “Yaxshilik ikki jahonni orttirar. Miqdoriy taqqoslashlar shuni koʻrsatadiki, mehmondoʻstlik oʻzbek xalq maqollari tarkibida nemis tilidagi maqollar tarkibiga nisbatan koʻproq darajada aks etadi. Bu nemislarning mentaliteti bilan izohlanadi. Masalan, quyidagi kabi maqollarda ifodalanganidek, kutilmagan mehmon nemis tomonidan u qadar xush koʻrilmaydi: “Wer zu oft kommt, ist nirgends willkommen”; “Wer zu oft kommt, ist selten willkommen” – (Chaqirilmagan mehmon, sariq itdan yomon); (Mehmon mehmonni sevmas, mezbon hammasini sevmas).

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, oʻzbeklarning muhim xususiyatlaridan biri mehmondoʻstlik boʻlib, u katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan: Kelish mehmondan, ketish mezbondan; Mehmon izzatda, mezbon xizmatda; Mehmon kelar eshikdan, Rizqi kelar teshikdan; Mehmon koʻrki – dasturxon. Maqolni baholashning eng muhim mezonlaridan biri maʼnaviy qadriyatdir, barcha xalqlar tillaridagi maqollarda muhim maʼnaviyat ifodalaridan biri esa mehnatsevarlik, yaʼni mehnatga nisbatan hurmat munosabatidir. Bu mavzu folklorda keng inʼikos etgan. Masalan: Ish bilganniki, qilich tutganniki; Ish bilan qishning mushkuli bitar; Ish gʻayratlidan qoʻrqar. Oʻz navbatida nemis maqollarida ham: “Arbeit macht aus Steinen Brot” – (Qimirlagan qilni qirq yorar), “Arbeit adelt” – (Mehnat insonni ulugʻlaydi); “Arbeit ist des Lebens Würze” – (Ish – hayot magʻzi).

Shunday qilib, nemis va oʻzbek tillari maqollar tarkibi tahlili shuni koʻrsatdiki, maqollarni identifikatsiyalashga nisbatan yondashuvlarda sezilarli farqlar mavjud. Zero, koʻplab nemis tadqiqotchilari maqollarni frazeologik tarkibga tegishli deb hisoblaydilar, bunga esa qoʻshilish qiyin. Shuning uchun maqolni til hodisasi sifatida oʻrganishda mazkur til va madaniyatning sohiblari boʻlgan har bir xalq tili va madaniyati tarixiga tayanish kerak.

---

<sup>15</sup>Seiler Friedrich. Deutsche Sprichwörterkunde. –München. 1922. –S.480.

Tadqiqot ishining “**Nemis va o‘zbek tillari maqollarining qiyosiy-tipologik tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida nemis va o‘zbek tillari maqollarini taqqoslashdagi struktur-semantik tahlil, nemis va o‘zbek tillari maqollari orasidagi til ichki korrelyatsiyalari haqida so‘z boradi.

Maqollar obrazlilik bilan belgilanadi va uni ifodalash vositalari ancha ko‘lamlidir. O‘zbek maqollarida badiiy obrazlilikning eng rang-barang vositalari ishlatiladi. Bular:

– **metafora** - ko‘chirish. So‘zning ikki predmet yoki hodisaning muayyan o‘xshashligi asosida ko‘chma ma’noda qo‘llanishi: Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqadi;

- **allegoriya** - o‘zgacha aytish. Mavhum tushunchani aniq bir hayotiy obraz yordamida o‘zgacha tasvirlashdan iborat bo‘lgan: Bo‘ri bir kun bo‘riligini qiladi;

- **giperbola** - muayyan predmet, hodisaning hajmi, kuchi, ma’nosi va hokazolarini haddan tashqari bo‘rttirishdan iborat bo‘lgan obrazli ifoda: Oltin boshni yopinchiq ichiga yashirib bo‘lmaydi;

- **metonimiya** - qayta nomlash. Tashqi yoki ichki aloqadorlik asosida bir predmet o‘rniga boshqasini nomlashning qo‘llanishi, tropning bir turi. Aloqadorlik quyidagicha bo‘lishi mumkin: a) predmet va u tayyorlangan material o‘rtasida: Cho‘ponning tayog‘i - otlining oyog‘i; b) tashkil topuvchi va tashkil etuvchi, ya’ni butun va bo‘lak o‘rtasida: Besh barmoq barobar emas; v) harakat va shu harakat quroli o‘rtasida: Qalam qilichdan o‘tkir; d) joy va undagi odamlar o‘rtasida: O‘ratepani bo‘ri buzadi, Samarqandni o‘g‘ri buzadi.

- **sinekdoxa** – (grek). **Synekdoche** – nazarda tutish. Miqdoriy munosabatlari asosida bir hodisadan boshqa hodisaga ma’noning ko‘chirilishi: qism nomi o‘rniga butun nomini, umumiy o‘rniga qism nomini va aksincha qo‘llash. Trop (ma’no ko‘chish turlari) sifatida sinekdoxa metonimiyaning bir turidir. Sinekdoxada quyidagilar qo‘llanadi: a) butun o‘rniga bo‘lak: Qishloqning yarmidan ko‘pi to‘yda; b) ko‘plik son o‘rnida birlik: Birniki minga, mingniki tumanga; d) birlik o‘rnida ko‘plik: Besh barmoqning birini tishlasang bari og‘rir;

- **ironiya**; Ikki ma’noda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan so‘z yoki gaplarni qo‘llash bilan ularning asosiy ma’noga teskari, hatto uni inkor etuvchi ma’nosi orqali kinoya, qochirik, piching, kesatiq, mazax ma’nolarini ifodalash. Aqling oshib teshikka sig‘may qoldi;

- **jonlantirish**: Odamlarga xos bo‘lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvon, parranda, qush kabilarga ko‘chirish orqali hosil bo‘ladigan tasvir usuli. Oyda ham dog‘ bor;

Bunday badiiy tasvir garchi kamroq qo‘llansada nemis maqollarining ichki shaklining muhim vositasi hisoblanadi: “Wo es Mode ist, trägt man den Kuhschwanz als Halsband” – (Yaxshining yuzida zuluk ham xol bo‘lib ko‘rinar). O‘z navbatida nemis tilida ham obrazlilikni ifodalash vositalari qamrovi keng. Ularga quyidagilar kiradi:

- **qarshilantirish**: “Heute rot, morgen tot” – (Bugun – bor, ertaga – yo‘q);

- **metafora:** “Man muss mit den Wölfen heulen” – (Bo‘rilar bilan yashash, bo‘ridek uvullash);

- **paradoks:** “Ein Mann ist kein Mann” – (Yolg‘iz otning changi chiqmas); Armsein ist keine Schande – (Kambag‘allik uyat emas);

- **metonimiya:** “Kindermund tut Wahrheit kund” – (Bolaga ish buyur, ortidan o‘zing yugur);

- **sinekdoxa:** “Der Reiche hat die Rinder, der Arme die Kinder” – (Boy boy uchun tirishar), (Kambag‘al kambag‘alga bo‘lishar);

- **giperbola:** “Wer's Glück hat, dem kalbt ein Ochs”; “Wem das Glück wohl will, dem kalbt ein Ochs” – (Omadi chopganning ho‘kizi ham bolalaydi); “Wem's glückt, dem legt ein Hahn Eier” – (Omadi chopganning xo‘rozi ham tuxum tug‘adi);

- **jonlantirish:** “Wenn Groschen kommt, muss Heller aufstehen” – (Zo‘rdan zo‘r chiqsa, zo‘r dumini qisar);

**personifikatsiya:** Nemis maqollarida ko‘pincha obrazlilikni yaratish maqsadida quyidagi kabi substansiyalangan hosilalar qo‘llanadi: **Eilesehr** yoki **Eileviel** (Shoshqaloq): “Eile sehr bricht den Hals” – (Shoshgan er uyiga yetolmas); “Eile viel kommt spätans Ziel” – (Shoshgan qiz erga yolchimas); **Wartmann** (Bamaylixotir): “Wartmann kommt weiter als Eile sehr” – (Shoshmagan arava quyonga yetar); **Ratsmann** (maslahatgo‘y): “Ist's abgetan, ist jeder ein guter Ratsmann” – (Urush tugagandan keyin qahramon ko‘payadi); **Meister Klüglein** (uddabiron): “Meister Klüglein ist der Mann, der alles besser machen kann” – (Ustasiga farqi yo‘q); **Raschmann** (qo‘li chaqqon, tezkor): “Raschmann kommt leicht zu Beulen” – (Shoshqaloq tez g‘urra orttiradi); **Schmalhans** (beso‘naqay): “Wo Schmalhans Koch (Küchenmeister) ist, da fallen die Bissen klein aus” – (Cho‘pon (beso‘naqay) ko‘paysa poda xarom o‘ladi); **Faulert** (dangasa), **Dummert** (nodon), **Wohlleb** (beg‘am): “Wohlleb, Dummert und Faulert sind Brüder” – (Beg‘am, nodon va dangasa – og‘a-inilar). Maqollarning bunday so‘z-komponentlarida ishtirokchi shaxslarning xarakteristikalar berilgan.

“In der Kürze liegt die Würze” – (Ozgina-sozgina), nutqning qisqasi ma‘qul deyiladi nemis maqolida. Shu ifodaning o‘ziyoq uning shakli, qofiyasi va ritmi mohiyatan o‘tkirligini ko‘rsatish imkonini beradi, shuningdek bu ularning qofiya hisobiga tilning har bir tashuvchisi uchun tushunarli ekanligidan dalolat beradi.

Nemis maqollarida qofiya quyidagicha bo‘lishi mumkin:

**Oxiridagi qofiya,** masalan, quyidagi maqollardagidek: “Was du heute kannst besorgen, das verschiebe nicht auf morgen” – (Bugungi ishni ertaga qo‘yima); “Wer das Abc recht kann, hat die schwerste Arbeit getan” – (Ishni qilsang puxta qil), (boshidan to‘g‘ri qil ma‘nosida); “Am Abend gekammert, am Morgen gejamert” – (Kechasi ko‘p yema, ertasi uvullama);

**Ichki qofiya,** masalan: “Narrenhände beschmieren Tisch und Wände” – (Yomonning bir qilig‘i ortiq); “Auf Weh und Ach folgt Freude nach” – (Bir yomonning bir yaxshisi bor); “Abgeredet vor der Zeit gibt nachher keinen Streit” – (Maslahatli to‘y tarqamas).

– **takroriy komponent**, masalan: “Gleich und gleich gesellt sich gern” – (Ko‘r ko‘rni qorong‘uda topadi); “Geredet ist geredet, man kann‘s mit keinem Schwamm mehr abwischen” – (Aytilgan so‘z, otilgan o‘q);

Struktur jihatdan nemis maqollari quyidagi asosiy formal andozalar bo‘yicha quriladi:

**Kein A ohne B** – (A siz B bo‘lmaydi), masalan: “Keine Rose ohne Dornen” – (Tikansiz atirgul bo‘lmas), “Kein Haus ohne Winkel” – (Burchaksiz uy bo‘lmas);

**Wie A so B** – (A qanday bo‘lsa, B ham shunday): “Wie gewonnen, so zerronnen” – (Oson topdi – oson yo‘qotdi); “Wie der Mann, so das Werk” – (Inson qanday bo‘lsa, uning ishi ham shunday). Bundan tashqari quyidagi shakli har-xil ma‘nosi bir xil maqollardek; “Wie der Abt, so die Brüder”, “Wie der Herr, so der Knecht”, “Wie der Herr, so 's Gescherr” – (Ustoz qanday – shogird shunday), (Daraxtga ko‘ra mevasi, ota-onasiga ko‘ra bolasi);

**Besser (lieber) A, als B** – A B ga qaraganda yaxshiroq: “Besser spät als nie” – (Hechdan ko‘ra kech yaxshi); “Lieber ein kluger Tadel, als ein dummes Lob” – (Aqlli tanqid ahmoqona maqtovdan yaxshiroq);

**Erst A, dann B** – Avval A, keyin B: “Erst besinn 's, dann beginn 's” – (Avval o‘yla, keyin so‘yla); “Erst die Wiege, dann das Kind” – (Avval harakat, keyin barokat);

**Wer A tut, tut B** – (A ni bajaragan, B ni ham bajaradi): “Wer A sagt, muss auch B sagen”, “Wer flüstert, der lügt”, “Wer nichts tut, sündigt genug”, “Wer das Pferd will, muss auch die Zügel nehmen”, “Wer den Wein trinkt, muss auch die Hefe trinken”, “Wer zum Spiel kommt, muss spielen”, “Wer den Teufel im Schiffe hat, der muss ihn fahren” kabi maqollarda semantik jihatdan kishi bir ishni boshladimi uni oxirigacha yetkazishi zarurligi yoki uning oqibatlariga ham chidashi zarurligi ta‘kidlanadi, masalan; (Bugungi ishni ertaga qo‘yma), (Yuribsan bu so‘qmoqqa, chidarsan bu to‘qmoqqa). Ma‘lumki, har bir tilda unda so‘zlashuvchilar uchun o‘z fikrini tushunarli va aniq qilib yetkazish imkonini beruvchi ko‘p sonli leksik birliklar mavjud bo‘lib, ushbu til sohiblari mazkur lug‘aviy boylikni o‘zlashtirgan bo‘ladi, tilning grammatik xususiyatlarini, u yoki bu hodisaga nisbatan o‘z munosabatini obrazli shaklda ifodalash vositalarini yaxshi biladi. Bu shartlarning barchasi nutq madaniyati sohasiga tegishlidir. Ushbu jabhaning muhim tomonlaridan biri antonimiya, omonimiya, polisemiya, sinonimiya va hokazolardir.

Biz sinonimiya, variativlik, polisemiya, antonimiya, omonimiya ham yaxlit maqollar tarkibiga xos deb hisoblashga moyildirmiz. Shu bois alohida olingan tillar maqollari o‘rtasida ichki til munosabatlari masalasiga to‘xtalayotib, eng avvalo, mazkur hodisalarni har bir tilning maqollar qatlamiga nisbatan ko‘rib chiqish joizdir. Nazarimizda, maqollar o‘rtasida mazkur munosabatlarning aks etishini analogiya bo‘yicha va bunday korrelyatsiyalarning frazeologiyada parallel yoritilishi bilan bog‘liqlikda o‘rganish kerak. Polisemantik frazeologizmlarni struktur jihatdan aniq chegaralash imkoni bo‘lmagan o‘zbek tilidagidan farqli o‘laroq nemis tilida frazeologik polisemiya fe‘lli birikmalar strukturasi ga ega

frazeologik butunliklarga xosdir. N.N.Amosova ta'kidlaganidek, "har qanday polisemiya bir necha marta qayta ma'no kasb etishi natijasida leksik birlikda ma'nolar to'planishi natijasidir".<sup>16</sup> Frazeologik polisemiya sohasidagi tadqiqotlardan farqli o'laroq, nemis tilida frazeologik sinonimiya faqat 50-yillarning o'rtalaridan tadqiqot obyekti bo'ldi. "Frazeologik sinonimlarga ma'nosi o'xshash yoki bir xil bo'lgan, grammatik va funksional roli bo'yicha o'xshash, belgilanuvchi hodisani turlicha tavsiflovchi bo'linmas birliklar kiradi", degan fikr tilshunoslar tomonidan qabul qilingan. Strukturasidagi nisbiy barqarorlikka qaramasdan ko'plab maqollar komponentlardan birining vaziyatga bog'liq ravishda qisman almashinuvidan iborat bo'lgan variativlikni namoyon etadi. Masalan, (Avval taom, keyin kalom) maqolini, hozirgi kunda (Avval iqtisod, keyin siyosat) shaklida ko'rish mumkin. (Arslon izidan, yigit so'zidan qaytmas) – (Arslon izidan, mard so'zidan qaytmas), (Asl aynimas, saryog' sasimas) – (Asl aynimas, oltin zanglamas).

